

**MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATANPARVARLIK VA XALQONA POETIK
IFODA****Jamshidova Jasmina Jamshid qizi**

Qarshi davlat universiteti 1-kurs talabasi.

Ortiqova E'tibor Shuxratovna

Qarshi davlat universiteti Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasini o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19345693>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin namoyandalaridan biri — Muhammad Yusuf ijodi tahlil qilinadi. Shoirning she'rlari insonning ichki dunyosi, sevgi, hayot va vatanparvarlik kabi yuksak mavzularni oddiy, ammo chuqur ma'no kasb etgan obrazlar orqali yoritib beradi. Asosiy e'tibor Muhammad Yusufning vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati, uning she'riy ifodasi va bu tuyg'ularni xalqona timsollar — ona, opa-singil, yurtdosh obrazlari orqali ifodalash uslubiga qaratilgan. Maqolada shoirning "Izhori dil", "O'zbekiston" kabi she'rlari asosida vatanni onaga, opa-singilga qiyos qilish orqali vatanparvarlik, sadoqat, mehr-oqibat kabi g'oyalar qanday badiiy yuksaklikda tasvirlangani yoritiladi. Muhammad Yusuf she'riyatidagi soddalik, samimiylik va xalqona ruh uning xalq orasidan chiqib, xalq yuragiga yetgan shoir bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada shoirning ijodiy tamoyillari, ya'ni she'rni "ko'chadan topish" haqidagi fikri tahlil qilinib, uning hayotiy voqelikni poeziyaga olib kirishdagi mahorati ochib beriladi. Muallif Muhammad Yusuf she'riyatini shunchaki adabiy meros emas, balki vatan oldidagi ma'naviy burch deb baholaydi.

Kalit so'zlar: O'zbek she'riyati, xalq tili, metaforal ifoda, dialogik ohang Xalqona she'riyat, Ichki dunyo tasviri, Izhori dil, Vatanni sevish, Poetik obrazlar, Adabiy meros.

O'zbek adabiyotida har bir avlod o'z shoirini topadi. Muhammad Yusuf esa nafaqat o'z zamonining, balki butun bir xalqning sevimli shoiriga aylangan. Uning she'rlari o'zbek xalqining qalbidan joy olgan, yuraklarga chuqur singib ketgan. Shoir o'z asarlari orqali milliy g'urur, vatanparvarlik, insoniylik, mehr-oqibat, sadoqat, halollik kabi yuksak tuyg'ularni oddiy, xalqona va yurakdan chiqqan ifodalar orqali yetkazgan.

Muhammad Yusuf she'riyatining bosh g'oyasi – xalq dardi, xalq quvonchi, ona-Vatanga sadoqat va inson qalbining nozik kechinmalaridir.

Muhammad Yusuf – xalqning shoiridir

Muhammad Yusuf ijodining eng muhim jihati — bu uning xalqga bo'lgan sadoqati va mehridir. U she'rni "ko'chadan topaman" degan. Bu esa shoirning real hayot, oddiy odamlar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shoir kitobdan emas, hayotdan ilhom oladi.

She'riyatining asosini xalq ruhiyati, xalq istaklari, xalq sevgisi tashkil etadi. Uning she'rlari soddaligi bilan ham, yuksak falsafiy teranligi bilan ham ajralib turadi.

U o'z she'riyatida xalqning ichki iztiroblari, orzulari, quvonch va g'amlarini o'z yuragidan o'tkazgan holda badiiy shaklga soladi. Shu sababdan ham Muhammad Yusuf she'riyati xalq qalbiga tez va chuqur kiradi. Uning har bir satrida xalq nafasi, xalq ruhi seziladi.

Vatan obrazining badiiy talqini

Shoir ijodining eng markaziy mavzusi — bu ona-Vatanga muhabbatdir. U Vatanni faqatgina siyosiy hudud sifatida emas, balki tirik, mehribon, yaqin inson timsolida tasvirlaydi.

Vatanni onaga, singilga, opa, yurtdoshga qiyos qilgan satrlarida bu jihat alohida o'rin tutadi:

O, ota makonim, onajon o'lkam

O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.

Sendek mehribon yo‘q, seningdek ko‘rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga.¹

Bu misralarda shoir Vatanni ota-onaga tenglashtirgan, uning mehrini esa dunyodagi eng go‘zal shaharlar bilan solishtirib bo‘lmaydigan darajada ulug‘lagan. Bu yerda "Rim" timsoli dunyoviy go‘zallik, tarixiy buyuklik ramzi bo‘lsa, "bedapoya" esa xalqona, oddiy, lekin samimiy qadriyatlarni anglatadi. Shoir fikricha, xalq yurti, ona-Vatan — eng aziz, eng ko‘rkam maskandir.

Opa-singil obrazida Vatan talqini

Muhammad Yusuf "Izhoril dil" she‘rida Vatanni singil, opa kabi obrazlar bilan taqqoslaydi. Bu o‘xshatishlar orqali shoir milliy mentalitetdagi mehr-oqibat, sadoqat, g‘amxo‘rlik, himoya kabi qadriyatlarni Vatanga nisbatan ham tatbiq qiladi:

Cho‘ksang — tur, singlim deb soching silayman,

So‘ksang — opam deyman, umring tilayman,

Sendan ranjimayman, gina qilmayman,

Xoh xo‘mray, xoh jilmay — birdek sevaman.

Misralarda Vatan har qanday holatda ham sevishga arzigulik timsol sifatida talqin qilinadi. Shoir har qanday sharoitda Vatandan ranjimaydi, undan gina qilmaydi, chunki bu tuyg‘u onaning, singilning, oiladagi eng yaqin insonlarning o‘rnini egallaydi. Shu bois, Muhammad Yusufning Vatan obraziga bo‘lgan yondashuvi juda samimiy, yurakdan chiqqan va o‘ziga xosdir.

She‘rlaridagi ruhiy teranlik va badiiy ifoda

Shoir Vatanni shunchaki tabiat manzaralari bilan emas, balki insoniy his-tuyg‘ular, ruhiy kechinmalar orqali tasvirlaydi. Bu jihat uning she‘rlariga chuqur falsafiylik baxsh etadi.

Quyidagi satrlarda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Shodon kunim gul otgan sen,

Chechak otgan izimga.

Nolon kunim yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga.

Singlim deymi, onam deymi,

Hamdard-u hamxonam deymi —

Oftobdan ham o‘zing mehri,

Ilig‘imsan, Vatanim.

Ushbu satrlar nafaqat badiiy jihatdan boy, balki ma‘naviy jihatdan ham chuqur mazmunga ega. Shoir Vatanni inson singari his qiladi — quvonadi, g‘amgin bo‘ladi, tasalli beradi, mehr ko‘rsatadi. Vatan faqat geografik joy emas, balki inson ruhiy olamining ajralmas bir bo‘lagi sifatida talqin qilinadi.

Muhammad Yusuf poetikasining xususiyatlari

Muhammad Yusufning she‘riyatida **xalq tili, metaforal ifoda, dialogik ohang, tugal badiiy kompozitsiya, tuyg‘ularning samimiy ifodasi** muhim o‘rin egallaydi. U o‘z she‘rlarida og‘ir terminlar, sun‘iy go‘zallikdan ko‘ra, xalq tilining hayotiyiligi va ifoda qudratini afzal ko‘radi.

¹ Muhammad Yusuf. Tanlangan asarlar. 1–2 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2009.

She'rlarida sodda, lekin ta'sirli so'zlar vositasida yuksak g'oyalarni yetkazadi. Shoirning quyidagi fikri bunga yaqqol dalildir: "Men she'rni faqat ko'chadan izlab, ko'chadan topaman.

Kitob o'qib she'r yozmayman. Kitobdan nasr topish mumkin, ammo haqiqiy she'r odamlar orasida. Ularni ko'ngil ko'zi bilan qog'ozga tushira bilish lozim." Uning poetikasida xalq ruhiyati bilan uyg'unlik, jamiyat hayotiga bevosita daxldorlik, zamonaviylik va milliylik uyg'unlashgan.

Muhammad Yusuf — o'zbek adabiyotida o'ziga xos maktab yaratgan, xalq dardi va Vatan muhabbatini yurakdan kuylagan shoir. Uning she'rlari yuraklarga yaqin, ma'naviy tarbiyada katta o'rin tutadi. Shoir Vatanni eng yaqin, eng mehribon, eng suyuqli obrazlarda tasvirlab, har bir o'quvchining qalbida sadoqat va g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Muhammad Yusuf she'riyati – bu millat ruhining, xalq qalbining ifodasidir. U har doim xalq yuragida yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Muhammad Yusuf tavalludining 65 yilligi munosabati bilan bildirgan nutqi
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Muhammad Yusuf. Tanlangan asarlar. 1–2 jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2009.
4. Qo'chqorova M. Muhammad Yusuf poetikasi. – Toshkent: Fan, 2014. – 208 b.
5. Hodiyeva M. Zamonaviy o'zbek she'riyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 240 b.
6. Qodirova D. Muhammad Yusuf ijodida vatanparvarlik ruhining talqini // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2021, №1. – B. 45–49.
7. Orifjonova N. Shoir yuragidan – xalq yuragiga: Muhammad Yusuf obrazida xalqparvarlik // Adabiy tadqiqotlar to'plami, 2020, №2. – B. 92–97.